

“Tabiatni himoya qilish qonun emas, madaniyat masalasiadir”. (UNESCO, 2015)

1.2-Mavzu: Eko-madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy zarurati

Reja:

1. Eko-madaniyatni shakllantirishda ta’limning roli va metodik yondashuvlar
2. Ekologik muammolar va ularni hal etishda ekologik ongning o‘rni
3. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillarining ta’limga integratsiyasi

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot jarayonida inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat tobora izdan chiqmoqda. Ekologik muammolar sonining ortib borishi, iqlim o‘zgarishlari, resurslarning chegaraliligi, biologik xilma-xillikning kamayishi insoniyatdan tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, **eko-madaniyat** — ekologik muammolarga ongli, mas’uliyatli va barqaror yondashuv shakllanishining asosi sifatida ko‘riladi.

Eko-madaniyat (ekologik madaniyat) — bu insonning tabiatga nisbatan ongli, axloqiy, mas’uliyatli munosabatini aks ettiruvchi madaniy, axloqiy, ma’naviy qadriyatlar majmuidir. U shaxsiy, ijtimoiy va institutsional darajadagi ekologik xulq-atvor, dunyoqarash, qadriyat va faoliyatlar tizimini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi “Eko-madaniyat — bu insonning ekologik bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, tabiatga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi, ekologik xavfsizlikka amal qilishi va barqaror hayot tarzini yo‘lga qo‘yish qobiliyatidir” deb ta’riflaydi. Eko-madaniyatni shakllantirishda ta’lim markaziy o‘rinni egallaydi. Ta’lim orqali biz jamiyatda ekologik onglilikni, mas’uliyatni va barqaror turmush tarziga intilishni singdirishimiz mumkin. Masalan, mакtablarda suv resurslaridan samarali foydalanishni o‘rgatish, suvni tejashning ahamiyatini tushuntirish va suv ifloslanishining inson salomatligiga ta’sirini ko‘rsatish orqali suvga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish madaniyatini shakllantirish mumkin. O‘zbekistonda Orol dengizi fojiasi kabi misollar orqali ekologik muammolarning real ta’sirini yosh avlodga chuqur singdirish muhimdir.

Pedagogik yondashuvlar, masalan, hikoya qilish, ochiq havoda mashg‘ulotlar va jamoaviy loyihalar orqali tabiatga muhabbat va hurmat tuyg‘usini uyg‘otish mumkin. Bolalikdan ekologik tamoyillarni o‘rganish ularning katta hayotida ham atrof-muhitga mas’uliyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Ekologik ta’lim dasturlari jamoa a’zolarini birgalikda ekologik muammolarni hal qilishga, mahalliy tashabbuslarda ishtirok etishga va barqaror rivojlanish loyihalarini qo’llab-quvvatlashga undaydi. Bu o‘z navbatida jamoalarning o‘z atrof-muhitini boshqarish qobiliyatini oshiradi va ekologik fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlaydi. Masalan, jamoaviy daraxt ekish aksiyalari, chiqindilarni tozalash ishlari va ekologik festivallar kabi tadbirlar orqali aholi o‘rtasida ekologik birlikni mustahkamlash mumkin.

Eko-madaniyatni shakllantirish uchun ta’limni har bir darajada, boshlang‘ich ta’limdan oliv ta’limgacha, hattoki kattalar ta’limiga ham integratsiya qilish zarur. Maktab o‘quv dasturlariga ekologiya, barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishi kabi mavzularni kiritish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ekologik ta’lim uchun zarur resurslarni ta’minalash muhimdir. Shu bilan birga, media va ommaviy axborot vositalari orqali ham ekologik ma'lumotlarni kengroq jamoatchilikka yetkazish, ekologik muammolar va yechimlar haqida xabardorlikni oshirish kerak.

Eko-madaniyat quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga bo‘linadi.

Tarkibiy qism	Mazmuni
Ekologik tafakkur	Atrof-muhit haqida ilmiy asoslangan fikr yuritish, sabab-oqibat aloqalarini anglash
Ekologik axloq	Tabiatni qadrlash, zarar yetkazmaslik tamoyiliga amal qilish
Ekologik xulq-atvor	Amalda tabiatga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lish (masalan, chiqindini ajratish)
Barqaror qadriyatlar	Tejamkorlik, tabiiy resurslarni tejash, qayta ishslash, yashil turmush tarzini afzal ko‘rish

So‘nggi o‘n yilliklarda ekologik muammolar insoniyat hayotining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, **atmosfera ifloslanishi**, global isish, suv tanqisligi va yer degradatsiyasi kabi muammolar shunchaki ekologik hodisa emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy xavf sifatida namoyon bo‘lmoqda. Atmosfera ifloslanishi sanoat chiqindilari, transport vositalari va yoqilg‘i yoqilishi oqibatida havodagi zararli moddalar miqdorining ortishiga olib kelmoqda. Bu esa nafas olish kasalliklari, ekotizimlar izdan chiqishi va iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Global isish Yer yuzasida haroratning ortib borishi natijasida muzliklarning erishi, dengiz sathining ko‘tarilishi va ekologik muvozanatning buzilishi bilan tahdid solmoqda.

Suv tanqisligi dunyoning ko‘plab mintaqalarida ichimlik suvi zaxiralarining kamayishi, daryo va ko‘llarning qurib borishi bilan kechmoqda. Bu esa suv resurslari uchun kurash, sog‘liq muammolari va qishloq xo‘jaligida inqirozlarga olib keladi.

Yer degradatsiyasi noto‘g‘ri foydalanish, o‘rmonlarning kesilishi, eroziya va ortiqcha kimyoviy o‘g‘itlar ishlatalishi natijasida yer unumdarligining kamayishi, cho‘llanish va qishloq xo‘jaligi inqirozlarini yuzaga keltirmoqda.

Iqlim o‘zgarishi bu muammolarning umumiy ildizi sifatida e’tirof etiladi. U qurg‘oqchilik, suv toshqinlari, o‘rmon yong‘inlari, majburiy migratsiya va oziq-ovqat tanqisligiga olib kelmoqda. Shu bois, ekologik barqarorlikni ta’minlash, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik savodxonlikni oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Yuqoridagi muammolarni hal etishda faqat texnik va huquqiy choralar yetarli emas. Ekologik ong va eko-madaniyat texnologiyalarni barqaror va xavfsiz yo‘nalishda boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Texnologik yechimlar jamiyatda ekologik mas’uliyat, barqaror iste’mol madaniyati va tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik tushunchalari asosida shakllanishi lozim. Aks holda, hatto ilg‘or texnologiyalar ham noto‘g‘ri foydalanilganda yangi ekologik muammolar manbaiga aylanishi mumkin.

Yashil iqtisodiyot bevosita BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals — SDG) bilan bog‘liq. Ayniqsa, quyidagi maqsadlar alohida ahamiyatga ega:

- SDG 12 – Mas’uliyatlari iste’mol va ishlab chiqarish, resurslardan tejamli foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishslash texnologiyalarini rivojlantirish.
- SDG 13 – Iqlim o‘zgarishiga qarshi chora-tadbirlar, karbonat gazlar chiqindisini kamaytirish, yashil energiya manbalarini joriy qilish, iqlimga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish.

Bu maqsadlarni amalga oshirishda ekologik ta’lim, ongli iste’mol madaniyati va fuqarolarning ekologik qarorlar qabul qilish salohiyati muhim rol o‘ynaydi.

Eko-madaniyat va yashil iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq. Yashil iqtisodiyot nafaqat hukumatlar yoki biznes subyektlari darajasida, balki fuqarolik jamiyatining eko-madaniyat darajasi orqali ham rivojlanadi. Chunki har bir fuqaroning kundalik hayotdagi ekologik tanlovlari – transport vositasidan tortib to mahsulot sotib olishgacha – umumiy ekologik barqarorlikka ta’sir ko‘rsatadi.

Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatning ekologik jihatdan barqaror va ijtimoiy jihatdanadolatli shaklidir. Bunda energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalarni qo‘llash, chiqindilarni kamaytirish va tabiat resurslarini ehtiyyotkorlik bilan boshqarish asosiy tamoyillardan sanaladi.

Yashil iqtisodiyot BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan quyidagicha ta’riflangan:

“Yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligini va ijtimoiy adolatni oshirishga xizmat qiluvchi, atrof-muhitga xavf tug‘dirmaydigan va ekologik cheklardan o‘tmaydigan iqtisodiy tizimdir”.

Ekologik barqarorlik va SDG maqsadlari Yashil iqtisodiyot — bu nafaqat iqtisodiy strategiya, balki yangi dunyoqarashdir. Bu dunyoqarash barqarorlik, mas’uliyatli qaror qabul qilish, ekologik adolat va tabiatga hurmat tamoyillariga asoslanadi. Bunday iqtisodiy modelga o‘tishning asosi esa — ekologik savodxonlik va eko-madaniyatning rivojlanishidir. Shu bois, har bir fuqaroning, ayniqsa yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirish, ularda yashil iqtisodiyot g‘oyalarini singdirish — ekologik barqaror kelajakni ta’minalashda muhim omildir.

Hozirgi kunda global ekologik inqiroz sharoitida insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yosh avlodning ekologik ongini, qadriyatlarini va mas’uliyatli xatti-harakatlarini shakllantirishdan iboratdir. Chunki bugungi bola ertangi qaror qabul qiluvchi yetuk fuqaro, siyosatchi, mutaxassis va jamiyat a’zosidir. Uning ekologiyaga nisbatan qarashlari kelajakdagi atrof-muhit holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologik mas’uliyat – bu insonning tabiat oldidagi burchini anglash, unga hurmat bilan yondashish va har bir qarorining ekologik oqibatlarini hisobga olgan holda yashashga bo‘lgan intilishidir. Bu tushuncha insonning shaxsiy fazilatlari, axloqiy qarashlari, ijtimoiy ong darajasi va bilimga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati bilan uzviy bog‘liq.

Ekologik mas’uliyatning shakllanishida ikki asosiy yo‘nalish muhim o‘rin tutadi:

1. **Ekologik qadriyatlar** — tabiatni qadrlash, uni asrashga ichki ehtiyoj va ishonch.
2. **Ekologik xatti-harakatlar** — chiqindilarni to‘g‘ri ajratish, suvni tejamli ishlatish, transportda ekologik variantlarni tanlash, ifloslanishga qarshi ongli harakatlar.

Ekologik ong va mas’uliyat bola dunyoqarashining dastlabki bosqichlaridan shakllanadi. Psixologlar ta’kidlaganidek, 3–7 yosh oralig‘i — axloqiy-me’yoriy va ijtimoiy qadriyatlar poydevorini qo‘yish uchun eng muhim davrdir. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalarida eko-tarbiya quyidagilar orqali yo‘lga qo‘yilishi kerak:

- Tabiat hodisalarini tushuntirish orqali hayrat, qiziqish va hurmat hissini uyg‘otish;

- Tabiyat bilan bevosita aloqa (yurish, kuzatish, gul va daraxt ekish) orqali hissiy bog‘liqlikni kuchaytirish;
- Bolalarga zararsiz materiallardan foydalangan o‘yinchoqlarni taklif qilish;
- “Chiqindilarni ajratamiz”, “Tabiat do‘stimiz”, “Quyosh va shamol – bizga yordam beradi” kabi o‘yinli, izohli mashg‘ulotlar.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ekologik mas’uliyatni shakllantirish fanga asoslangan, tizimli yondashuv orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichda o‘quvchilar:

- Ekologik tushunchalar (biosfera, global isish, chiqindilar, iqlim o‘zgarishi) bilan tanishadi;
- O‘z hududidagi ekologik muammolarni o‘rganib, amaliy loyihalarda ishtirok etadilar;
- “Yashil mакtab”, “Ekoklub”, “Bir o‘quvchi – bir daraxt” kabi tashabbuslarda qatnashib, mas’uliyat hissini anglaydilar;
- Ekologik bahs-munozaralar, ekskursiyalar, laboratoriya tajribalari orqali o‘z pozitsiyalarini mustahkamlab boradilar.

Ayni paytda, ekologik ta’lim boshqa fanlar (biologiya, geografiya, texnologiya, ona tili va adabiyot) bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Masalan, adabiyotda tabiatga doir obrazlarni tahlil qilish, geografiyada ekologik zonalarni o‘rganish, texnologiyada chiqindilardan foydalanish orqali kreativ mahsulot yaratish o‘quvchilarda eko-mas’uliyatni mustahkamlovchi vositalardir.

Yosh avlodning ekologik qarashlari nafaqat mакtab, balki oilaviy muhit va jamiyatdagi xulqiy namunalar orqali ham shakllanadi. Agar ota-onas chiqindini ajratmasa, suvni oqizib qo‘ysa, uyda plastmassa haddan ortiq ishlatsa – bolada ekologik mas’uliyat shakllanmaydi. Shu sababli, ota-onalarning eko-tarbiyadagi ishtiroki ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda tashkil qilinishi muhim. Shuningdek, jamoatchilik, OAV, blogerlar, ekologik tashkilotlar ham bolalar va o‘smirlar ongida mas’uliyat hissini kuchaytirishga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, eko-madaniyat – bu nafaqat ekologik bilim, balki amaliy hayotiy zaruratdir. U shaxsiy hayotda, jamoatdagi faoliyatda, ta’limda va davlat siyosatida o‘z ifodasini topadi. Insonning ekologik tafakkurga asoslangan, mas’uliyatli qarorlari orqali ijtimoiy barqarorlik va tabiat muvozanati tiklanishi mumkin.